

## MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHATLAR

**Achilov Obid Muzrobovich**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*"Maktabgacha ta'lim" kafedrası o'qituvchisi*

**Tursunova Durdona Ikromjon qizi**

*"Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Normamatova Mavluda Furqat qizi**

*"Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annatatsiya:** *Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktab ta'limiga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash.*

**Аннотация:** *Коренное совершенствование системы дошкольного образования, всестороннее интеллектуальное, духовно-эстетическое, физическое развитие детей, коренное повышение качества их подготовки к школьному обучению.*

**Summary:** *Fundamental improvement of the pre-school education system, comprehensive intellectual, spiritual-aesthetic, physical development of children, and radical improvement of the quality of their preparation for school education.*

**Kalit so'zlar:** *maktabgacha ta'lim tashkiloti, islohat, intellektual, ijtimoiy, hissiy, maktabgacha ta'lim tizimi.*

Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvar Oliy Majlisga murojatnomalarida O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o' quv yurtigacha – ta' limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma' rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi degan purm'ano fikrlarini aytib o'tdilar.

Buyuk fransuz faylasufi V.GYUGO "Odamning ulug'ligi bo'yi bilan o'lchanmaganidek, xalqning ulug'vorligi ham uning soni bilan o'lchanmaydi; yagona o'lchov, uning aqliy kamoloti va axloqiy barkamolligidir"- deb bejizga aytilmagan.

Maktabgacha ta'lim tizimidagi tub islohotlar maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktab ta'limiga sifatli tayyorlashga qaratilganligini soha mutaxassisleri oldiga qator vazifalar qo'ymoqda. Uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim sohasiga mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev alohida e'tibor qaratib 2016 yil 29-dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarorni imzoladi.<sup>56</sup>Qaror qabul qilinib unga ko'ra tub islohatlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2017 yildagi PF-5198-sonli farmoniga muvofiq Uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta'lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash<sup>57</sup> maqsadida qator vazifalar belgilab berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2017 yildagi PQ-3305-son qaroriga muvofiq maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etidi.<sup>58</sup>O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli qarorida maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish,salohiyatli kadrlarni tayyorlash,ota-onalarni maktabgacha ta'limning o'quv jarayoniga jalb etish<sup>59</sup> kabi vazifalar belgilandi.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual,axloqiy,estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish kabi vazifalar belgilangan.

2018-yilda xorijiy ilg'or tajribalar asosida qayta ishlab chiqilgan "O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari"ga muvofiq bolalarni maktabga har tomonlama jismoniy, ijtimoiy, hissiy, nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari, bilish jarayonini, ijodiy rivojlanishini shakllantirish belgilab qo'yilgan.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2016 yil 29-dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2016 yil 29-dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori

<sup>56</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2016 yil 29-dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori

<sup>57</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2016 yil 29-dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori

<sup>58</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2017 yildagi PQ-3305-son qarori

<sup>59</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli qarori

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2016 yil 29-dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori